

Mustaqilligimizning 25 yilligi oldidan Andijon va Namangan viloyatlarida ham «Kitob olami» majmuasi foydalanishga topshirildi.

Andijon shahar 30-umumta'lim maktabi direktori Feruza Yo'ldosheva ham majmua bilan tanishish uchun o'quvchilar bilan tashrif buyurdi.

– «Kitob olami» vadiylik kitobxonlar qalbini quvonchga to'ldirdi. Majmuani aylanar ekanmiz, kitoblarning o'zgacha, yangicha uslubda rastalarni bezab turgani, ayniqsa, yangi nashrdan chiqqan rang-rang dizayndagi adabiyotlarni ko'rib, ko'zimiz quvnadi. Shu kuniyoq o'quvchilarim o'zlarini qiziqtirgan adabiyotlarni sotib olishdi. Maktabimiz kutubxonasi uchun esa yigirma dona kitob xarid qildik. Ular orasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, badiiy kitoblar va albatta, jahon hamda o'zbek xalq ertaklari ham bor.

Kitobxonlar safi kun sayin kengayib borayotgan bir pallada, joylarda birin-ketin «Kitob olami» majmuasining barpo etilishi ayni ko'ngildagidek ish bo'lmoqda. Demak, bugungi o'quvchi kitob o'qiyapti, o'qiganda ham ma'naviy ehtiyojiga mosini tanlab, nodir kitoblarni o'qiyapti.



Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:23 (67084)
2016-yil
6-iyun

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN – 2010-6092

DIQQAT!

«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG!» TANLOVI G'OLIBLARI ANIQLANDI

Aziz o'quvchilar, xabaringiz bor, o'tgan yil gazetamizning 41-sonida «Boylikni bolalikdan asrang» tanlovini e'lon qilgan edik. Quvonarlisi, o'tgan qisqa vaqt davomida Siz azizlardan mavzuga doir she'r, rasm, hikoya, ibratli voqea

va ertaklar bitilgan juda ko'plab maktublar oldik.

«Tong yulduzi»ni muntazam kuzatib borgan bo'lsangiz, ularning bir qanchasini gazetamiz sahifalari orqali e'lon qilib bordik. Maktublar shu qadar ko'p keldiki, ular orasidan g'oliblarni

saralab olish biz uchun juda qiyin kechdi. Shunday bo'lsa-da, mazmunan mukammal yozilgan bir qancha ijodiy ishlar, rasmlar mualliflari g'olib deb topildi.

(Davomi 2-betda)

Ushbu sonda:
VATANIMGA XIZMAT QILAMAN

2-bet

Eh, ta'til QANDAY MAZZA!

4-bet

BIZ SEVGAN SHOIRA

6-bet

(7-bet)



NAVBATDAGI BELLASHUV – TAILANDDA

Mustaqilligimizning 25 yilligi oldidan

Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, kuni kecha «BIZ BUYUK YURT FARZANDLARIMIZ!» shiori ostidagi yoshlar festivali Toshkent viloyatida ham bo'lib o'tdi. Festival doirasida viloyatning barcha tuman va shaharlarida, jumladan, ta'lim muassasalarida, mahallalarda, madaniyat va istirohat bog'larida ko'plab tadbirlar o'tkazildi. Bu tadbirlarda umumta'lim maktab o'quvchilari ham faol ishtirok etdi.

VATANIMGA XIZMAT QILAMAN

Ayniqsa, Parkent tumanidagi 31-umumta'lim maktabida «Diniy ekstremizm va terrorizm yoshlar kelajagiga tahdid» mavzusidagi anjuman, Chirchiq shahridagi 14-Mehribonlik uyida bo'lib o'tgan «Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasin!» kabi loyihalar doirasidagi uchrashuvlar, davra suhbatlari o'quvchilarga olam-olam zavq ulashdi.

– Biz o'tmishi ulug', kelajagi buyuk yurt farzandlarimiz, – deydi O'rta Chirchiq tumanidagi 72-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 9-sinf bitiruvchisi Sardor Ahmadxo'jayev. – Men yaqinda iqtisodiy bilim asoslari fanidan o'tkazilgan fan olimpiadasida tumanda 2-o'rinni, velopoyga ham-

da futbol musobaqalarining tuman bosqichida sovrinli o'rnlarni egalladim. Bu kabi yutuqlarimda, albatta, ustozlarimning xizmati beqiyos. Aniq fanlarga qiziqishim sabab Olmaliq akademik litseyiga o'qishga topshiraman. Kelajakda o'z mutaxassisligim bo'yicha yurtimga, xalqimga xizmat qilaman va ustozlarim, ota-onamning yuksak ishonchini oqlayman.

Festival davomida viloyat o'g'il-qizlarining yuraklaridan bir gap otilib chiqdi: «Vatanimga xizmat qilaman».



ZUBAYDA olgan sur'atlar

Toshkent pedagogika kollejida «Yoshlar, «ommaviy madaniyat» va internet» shiori ostida «Gulshan aro gulchehralar» Respublika ko'rik-tanlovining tuman saralash bosqichi bo'lib o'tdi.



munosabatda bo'lish mil-

Yo'llaringiz nurafshon bo'lsin!

DIQQAT!

«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG» TANLOVI G'OLIBLARI ANIQLANDI

(Davomi. Boshi 1-betda)

Quyida ular bilan tanishasiz:

Eng yaxshi maqola:

1-o'rin – Vazira NABIYEVA, Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi;

2-o'rin – Anora HOJIMATOVA, S. Sirojiddinov nomidagi akademik litsey o'quvchisi;

3-o'rin – Munisaxon G'ULO-MOVA, Andijon viloyati, Bulqoboshi tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 4-«D» sinf o'quvchisi.

Eng yaxshi rasm muallifi:

1-o'rin – Faridun SAYFIDDI-NOV, Termiz shahridagi 11-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi;

2-o'rin – Muzaffar ABDUNAZAROV, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi;

3-o'rin – Feruza OTAQULOVA, Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi.

Rag'batlantiruvchi mukofotlar:

Dildora SUNNATOVA, Boburjon BAXTIYOROV, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchilari;

Sarvaroy NE'MATILLAYEVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 3-umumta'lim maktabining 4-«G» sinf o'quvchisi;

Behruzbek AHMADALIYEV, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabi o'quvchisi;

Oydin ULUG'OVA, Qo'shrabot sanoat va servis kasb-hunar kolleji 1-bosqich o'quvchisi;

Azizabonu USMONJONOVA, Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 67-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi;

Behruz XOLBO'TAYEV, Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 13-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi;

Dilnozaxon ERKINBOYEVA, Buxoro davlat universiteti qoshi-

dagi 3-Qorako'l akademik litseyi 2-bosqich o'quvchisi;

Iqbolxon MUHAMMEDOVA, Toshkent shahar, Yakkasaryo tumanidagi 73-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi;

Malika MUHIDDINOVA, Baxtiyor PARDABOYEV, Diyora HAMIYEVA, Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-umumta'lim maktabi o'quvchilari;

Yulduzxon MAXMARIZAYEVA, Bahora MAMADIYOROVA, Samarqand viloyati, Ishtixon tumanidagi 13-umumta'lim maktabi o'quvchilari;

Sitora ABDURAHMONOVA, Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi 63-umumta'lim maktabining 8-«V» sinf o'quvchisi;

Gulira'no HAMIDULLAYEVA, Andijon viloyati, Bulqoboshi tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi;

Abdulaziz ISOMOV, Buxoro viloyati, Buxoro tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi;

Hojiniso ODINAYEVA, Termiz shahridagi 11-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi;

Farangiz TOSHBULOVA, Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 5-«V» sinf o'quvchisi;

Zulayho RAHIMJONOVA, Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi;

Sitora SAIDOVA, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi;

Umida SATTOROVA, Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi 45-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi;

Isomiddin OMONQULOV, Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi.

G'olib o'quvchilar faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari ni tahririyatimizdan olib ketishlari mumkin.

Tel: 244-63-08

«GULSHAN ARO GULCHEHRALAR»

Tadbirda Chilonzor Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Nigora Abdurahimova,

Respublika Ma'naviyat-targ'ibot markazi eksperti, faylasuf, siyosatshunos Jamila Shermammedova, tumandagi kollej va litsey o'quvchilari ishtirok etishdi.

– Mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayniqsa,

qizlarning zamonaviy bilim va kasb-hunar sirlarini puxta egallashlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan, – deydi Toshkent pedagogika kolleji direktori Muhabbat G'ozieva. – Qiz bola taqdiriga loqayd munosabatda bo'lish mil-

lat kelajagiga e'tiborsizlik bilan barobardir.

O'quvchilar tomonidan «ommaviy madaniyat»ning salbiy oqibatlarini, internetdan noto'g'ri foydalanish oqibatida turli aldovlarga duchor bo'layotganlar haqidagi lavhalarini aks ettiruvchi bir-biridan mazmunli sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Yakuniy natijalarga ko'ra 1-Respublika tibbiyot kollejining «Sog'lom avlod» guruhi 1-o'rinni, 2-Toshkent yuridik kollejining «Nihol» guruhi 2-, 3-o'rin Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi o'quvchilari esa 3-o'rinni egalladi. Shuningdek, Toshkent pedagogika kolleji «Odam savdosi to'g'risidagi eng yaxshi sahna ko'rinishi» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

G'oliblarga esdalik sovg'alari hamda faxriy yorliqlar topshirildi.

Dono AZIMOVA, Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi, Nodira NAZAROVA

Bizga maktub
yo'llabsiz...

GAZETADAN ILHOMLANIB...

Jannatmakon O'zbekistonimizning Shofirkon tumanidagi Quyi Chuqurak qishlog'idan maktub yo'llamoqdaman.

Mana, maktablarda o'qishlar ham tugab, yozgi ta'tilga chiqdik. Men bo'sh vaqtlarimda kutubxonaga borib, badiiy kitoblar o'qishni yoqtiraman. O'zim ham kichik-kichik she'rlar mashq qilib turaman.

«Tong yulduzi» mening sevimli gazetam. Har yili birinchilardan bo'lib unga obuna bo'laman. Menga, ayniqsa, «Ijod zavqi» hamda «Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!» rukni ostida beriladigan materiallar juda yoqadi. Ulardan ilhomlanib, boshqotirmalarni o'zim tuzishga harakat qilyapman.

Firdavs BOBOJONOV,

**Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi
33-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi**

IMTIHONLAR AV JIDA

Men bu yil 9-sinfni bitiryapman. Maktabimizda «Xayr maktab, salom kollej!» tadbiridan so'ng sinfdoshlarim bilan yig'ilishib, imtihonlarga tayyorgarlikni boshlab yubordik.

Bugun ona tili va adabiyot fanidan imtihon bo'ldi. Ustozlarimiz Nargiza opa Hayitboyeva hamda Vazira opa Azimovalar imtihonda yanada talabchan bo'lishdi. Menga «Nima qildik Vatan uchun?» mavzusini yoritib berish topshirildi. Inshoni boshlar ekanman, ko'z oldimga dastlab maktabga ilk qadam qo'ygan kunlarim keldi. O'ylab qarasam, ona Vatanimiz biz uchun barcha sharoitlarni yaratib beribdi. Biz esa yurt uchun hali hech narsa qilmaganimizni angladim. Hozircha namunali xulqimiz, a'lo o'qishimiz muhimligini tushundim. Men singari kollej, litseylarga o'qishga kirish arafasida turgan tengdoshlarimga omad tilayman.

Odina SAHOBIDDIN qizi,

Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabi bitiruvchisi

SAN'AT MASKANI

Marg'ilon shahridagi 10-bolalar musiqa va san'at maktabida 118 nafar o'g'il-qiz musiqa ilmidan saboq olmoqdalar.

— O'quvchilarning bilim va iste'dodlarini yuzaga chiqarish maqsadida qo'shimcha mashg'ulotlar, maxsus sinov darslari, qolaversa, ko'rik-tanlovlar tashkil etyapmiz, — deydi maktab direktori, «Shuhrat» medali sohibi Olga Shmayder. — O'qitishdagi bu kabi uslublar yoshlarimizning ijodga, musiqaqaga bo'lgan havasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Maktabda 9 yo'nalish bo'yicha, ya'ni fortepiano, milliy cholg'u asboblari ijrochiligi, tasviriy san'at, an'anaviy xonandalik, xoreografiya, amaliy san'at, rus xalq cholg'ulari, akademik vokal, damli va zarbli cholg'ular bo'yicha ta'lim berilmoqda. O'z navbatida, san'atga ixlosmand yoshlar ham ko'plab tanlovlarda sovrindor bo'lmoqdalar.

Qozog'iston Respublikasining Ostona shahrida «Yevrosiyo yulduzlari» II xalqaro loyiha doirasida «Xalq ijrosi» nominatsiyasi bo'yicha Shahlo Hasanova 1-darajali diplom, Mushtariybegim Qurbonova esa «Tasviriy san'at» nominatsiyasi bo'yicha Gran-pri sohibi bo'ldilar.

**Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar**

FARZANDLARIM MUVAFFAQIYATLARI

Assalomu alaykum, hurmatli tahririyat xodimlari!
Men baxtli ona sifatida xat yo'llab, quvonchimni sizlar bilan baham ko'rishga jazm etdim.



Sirojiddin

O'g'lim Salohiddin Samadov Zomin tumanidagi 18-umumta'lim maktabining 5-sinfida o'qiydi. U san'atga qiziqadi, qo'shiq aytishni juda yaxshi ko'radi. Yaqinda bo'lib o'tgan maktablararo musobaqada o'zining «Tulpor», «Vatan» kabi qo'shiqlari bilan ishtirok etib, barchada yaxshi taassurot qoldirdi. Akasi

Sirojiddin esa mazkur maktabning 8-sinfini a'lo baholar bilan tamomladi. U ikki yildan buyon tumani-mizdagi «Barkamol avlod» bolalar markazining «Yosh musavvirlar» to'garagi a'zosi. Katta o'g'lim betakror tabiat manzaralari, qishlog'imiz go'zalligini aks ettirgan rasmlari bilan «Kamalak — 2015» festivalida faol qatnashib, faxrli 1-o'rin

sohibi bo'ldi.

Farzandlarim erishgan bu yutuqlarning barchasi yurtimizdagi tinch, osuda hayotimiz, Yurtboshimiz tomonidan yaratib berilayotgan shart-sharoitlar samarasidir. Zero, farzandlar quvonchi, biz, ota-onalarning baxt-iqbolimizdir!

Dilfuza ALIBEKOVA,

Jizzax viloyati, Zomin tumani

KICHIK AKADEMIYANING IQTIDORLI YOSHLARI

Yaqinda poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida «Fikrimiz, jasoratimiz, ijodimiz senga, Vatan!» shiori ostida maktab kichik akademiyasining o'quv yili yakuniga bag'ishlangan festival bo'lib o'tdi.



qizlar» ko'rik-tanlovi hamda «Kamalak» yulduzlari» Respublika tanlovining shahar bosqichi g'olibi, «Yosh qalamkashlar» Respublika tanlovining mutlaq g'olibi, 9-«D» sinf o'quvchisi Madina Komilxonova so'zga chiqib, kelajakda yutuqlari soni yutuqalar salmoqli bo'lishi haqida so'z yuritdi.

Darhaqiqat, umidli yoshlarimiz tomonidan qo'lga kiritilayotgan katta-katta zafarlar, ajoyib yutuqlar kelajagimiz poydevori naqadar mustahkam bunyod etilayotganidan darak bermoqda.

Festival davomida mehmonlar va ishtirokchilarda ko'tarinki ruh va bayramona

— Muassasamizda 2005-yildan «Kichik akademiya» faoliyat yuritib keladi, — deydi maktabning o'quv ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari Malika Abdullayeva. — O'tgan davr mobaynida ko'plab yoshlarimizning ilmiy va ijodiy loyihalarini hamda o'z iqtidorlarini tengdoshlari va maktab o'quvchilari orasida targ'ib etishlariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Festival o'tkaziladigan badiiy maydonda iqtidorli o'quvchilarning ijodiy ishlaridan ko'rgazmalar tashkil etildi.

Sahnaga «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichi g'olblari, sport yo'nalishi bo'yicha respublika, Osiyo va jahon chempionlari kirib kelishdi. Shundan so'ng, maydon markaziga O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i olib kirildi va Davlat madhiyasi yangradi.

So'ngra o'quvchilar nomidan «Orasta



N. SULTONOV o'lgan suratlar

kayfiyat hamroh bo'ldi. Biz ham olam-olam taassurotlar bilan qaytdik.

Jamoliddin ABDULLAYEV

Hunar - inson ziynati

Q o r a q a l -
pog'iston Respublikasi-
ning Nukus shahrida bugun
misli ko'rilmagan ishlar amalga
oshirilmogda. Ko'rkam ko'chalar,
muhtasham binolar kishi ko'zini quv-
natadi. Bugun sizga hikoya qilayotgan
maskan - Nukus shahridagi «Barka-
mol avlod» bolalar ijodiyoti markazi
ham 2011-yil to'liq ta'mirlanib, foy-
dalanishga topshirildi. 150 o'rin-
ga mo'ljallangan markazda
kuniga ikki mahal to'garak
mashg'ulotlari olib
boriladi.

Markaz rahbari Gulparshin opa
Rizayeva markazning faoliyati, o'quv-
chilarning erishgan yutuqlari haqida
to'liqlanib gapirib berdi:

«Barkamol avlod» markazimizga bu
yil 573 nafar o'quvchi jalb qilingan.

Badiiy ijodiyot yo'nalishi bo'yicha - bichish-tikish, to'qish, yumshoq
o'yinchoqlar, yosh jurnalist va notiq,
dutor, estrada vokal to'garaklari, texnik
ijodiyot yo'nalishi bo'yicha - yosh foto-
havaskor, yosh konstruktor (avtomodel,
raketamodel), robototexnika va elektron
o'yinchoqlar to'garaklari, o'lkashunoslik,
ekologiya, shuningdek, chet tillari bo'yicha
ham qator to'garaklar faoliyat yurit-
mogda.

O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini maz-
munli o'tkazish va maktablar bilan ham-
korlikda ishlash maqsadida tumani-
mizning ba'zi ta'lim maskanlarida ham
to'garaklar tashkil etilgan.

Markazimizda o'qituvchilarning
bilim va malakalari ham si-
novdan o'tkazib boriladi.
Jumladan, to'qish to'ga-
ragi rahbari Gulmira
Baltabayeva «Yilning
eng yaxshi to'ga-
rak rahbari» tan-
lovda 1-o'rin-
ni egallagani
barchamizni
quvontirdi.

Bu bo-
r a d a
o'quvchi-
larimizning
yutuqlari ham
bisyor. Masalan,
«Yosh ixtirochi»
tanlovda to'qish
to'garagi a'zosi
Elmira Genjemur-
ratova Respubli-
ka bosqichida faol
ishtiroki uchun dip-
lom bilan taqdirlan-
di. «Yosh konstruktor»
to'garagi a'zosi Sardor
Ubaydullayev «Yosh ixti-
rochi» tanlovining respublika
bosqichida 1-o'rinni egalladi va
diplom bilan taqdirlandi. Shuningdek,

«Badiiy ijodiyot» yo'nalishi
bo'yicha «Zarb - 2016»
yosh doirachilar festivali-
ning Qoraqalpog'iston
Respublikasi bosqichida
«Estrada vokal» to'garagi
a'zosi Timur Abdullayev
3-darajali diplom bilan
taqdirlandi.

«Barkamol avlod» bolalar
ijodiyoti festivalining Qoraqalpog'iston
Respublikasi miqyosi-
da tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha
Gulmira Dosnazarova, to'qish bo'yicha
Elzira Qurbanbayeva 1-, gilam-
chilik bo'yicha Aziza Yusupova, liboslar
dizayni bo'yicha Nelufar Allambergeno-
va 2-o'rinni egalladilar.

Yozgi ta'til kunlari to'garaklarning ish-
lashi uchun mavsumiy o'quv dasturlari
va bolajonlarning bo'sh vaqtlarini maz-
munli o'tkazish bo'yicha ommaviy ishlar
rejasi tuzildi.

Bolajonlar, hunar o'rganmoqchimisiz, albatta, tuman yoki viloyatingizda barpo etilgan «Barkamol avlod» bolalar markaziga boring. U yerda sizlarga malakali o'qituvchilar hunar o'rgatib, o'z qo'llaringiz bilan mo'jizalar yaratishingizga yordam berishadi.

Ozoda TURSUNBOYEVA
yozib oldi

EH, TA'TIL QANDAY MAZZA!

Bolajonlar, ta'til kun-
larini qayerda o'tkazmoqchisiz?

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi
90-umumta'lim maktabining 5-sinfni a'lo baholarga
bitirgan tengdoshingiz Sevinch Ro'zimanova yozgi ta'tilni
intiqlik bilan kutarkan. Boisi, sevimli go'shasi Denovga qarindoshlarinikiga borishni juda yoqtirarkan-da.

— Surxondaryoning so'lim vohalaridan biri bo'lgan Denov tumanida
pishiqchilik juda avjida. O'rik, olma, gilos deysizmi, barchasi g'arq pishgan,
— deydi Sevinch quvonch bilan. — U yerda dugonalarim juda ko'p. Men
borsam, ular quvonib ketishadi va birga ko'chalarni, xiyobonlarni ay-
lanamiz. Chiroyli manzaralar, ulkan tog'lar xuddi bir qadam tashlasan-
giz yetadigandek salobatli ko'rinadi. Tabiat manzarasida dam olish
asosida bir-birimizga o'quv yili davomida erishgan yutuqlarimizni
gapirib beramiz. Dugonalarimning bir-biriga gal bermay gapirishlar-
idan ularning ham yutuqlari bisyorligi sezilib turadi. Eh, ta'til kunlari
baribir mazza-da. Agar yo'lingiz tushsa, siz ham Denovga, albatta,
kirib o'ting. Bu manzaralarni o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz.

Ha, Sevinchning bu gaplaridan keyin poytaxtimizdan salkam
700 kilometrlilik uzoq masofada bo'lgan Surxondaryoning
mazkur tumaniga biz ham g'oyibona safar qildik. Siz ham
Sevinch singari qarindoshlaringiz istiqboliga shoshiling,
taassurotlaringiz haqida bizga, albatta, yozib yuboring.

Manzura
UBAYDULLAYEVA



N. SULTONOV olgan suratlar

Maroqli dam — bizga hamdam

KITOB BIZNI BIRLASHTIRADI

Yaqinda G'afur G'ulom nomidagi madaniyat
va istirohat bog'ida O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi tomonidan kitobxonlar
festivali bo'lib o'tdi. Unda «Bolalar adabiyoti»
jurnali taqdimotining o'tkazilishi nur ustiga
a'lo nur bo'ldi.

Sahnaga «Bolalar adabiyoti» jurnalining Bosh muharriri
Doniyor O'rolov boshchiligidagi ijodkorlar guruhi taklif etildi.

Jamoatchilik kengashi a'zolaridan Tursunboy Adashboyev,
Olqor Damin, Rahmatilla Barakayev, Dilshod Rajab kabi bola-
lar shoirlari so'zga chiqib, nashrning yoshlar hayotida tutgan
o'rni, sahifalarining rang-barangligi va katta ahamiyatga ega
ekanligi to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.



O'zbekiston xalq artisti Shermat Yormatovning badiiy rah-
barligidagi «Bulbulcha» bolalar ashula va raqs dastasining badii-
y chiqishlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Fursatdan foydalanib, an-
jumanga kelgan meh-
monlar bilan yaqindan
tanishdik. Ular Tosh-
kent viloyatining
Piskent tumanidagi
1-umumta'lim mak-
tabining bir guruh
o'quvchilari bo'lib,
ona tili va adabiyot
fani o'qituvchilari
Xalq ta'limi a'lochisi
Zilola Ibrohimova va
Visola Nuriddinova bilan
kelishibdi.

— Men Nodir To'xtamuro-
dov 4-«A» sinfda o'qiyman, — deb o'zini tanishtirdi
o'quvchilardan biri. — Matematika va rus tili fanlari-
dan «Bilimlar bellashuvi»da 1-o'rinni egalladim.
Shuningdek, shaxmat bo'yicha tuman muso-
baqasida katta muvaffaqiyatlarga erishib,
ustozim Feruza Zokirovaning ishonchini
oqladim.

Madina Tolibova esa mazkur mak-
tabning 7-«D» sinfida o'qir ekan. Eng
yaxshi ko'rgan mashg'uloti mutolaa
bo'lgan bu kitobxon qiz maktabda
o'tkazilgan kitob marafonida qat-
nashib, 1-o'ringa sazovor bo'libdi.
O'tgan o'quv yilida ona tili va adabi-
yot fanidan o'tkazilgan «Bilimlar
bellashuvi»ning viloyat bosqichida
3-o'rinni egallashida kitobning yuk-
sak o'rni haqida to'liqlanib gapirdi.
Yuzdan ortiq nashriyotlar-
ning mahsulotlaridan tashkil etilgan
ko'rgazmalardan ko'plab qiziqarli
kitoblar xarid qildik. Yozgi ta'til-
da ularni mazza qilib o'qiydigan
bo'ldik.

Ha, kimki kitobxon bo'lsa,
bu uning yutug'i. Shunday
ekan, yurtimizda kitobni seva-
digan, uni eng yaqin do'st bilib
e'zozlaydigan o'quvchilarimiz
safi kengayaversin!

D. HOTAMOVA

«BARKAMOL AVLOD»DA BAYRAM

«Barkamol

avlod» respublika bolalar texnik ijodiyot markazidagi to'garak a'zolariga bitiruv guvohnomasini tarqatish maqsadida «Bitiruvchi - 2016» tadbiri bo'lib o'tdi.




Childirma, nog'oralarning sho'x sadolari uzoqdan katta-yu kichikni markaz tomon chorlaydi. Bayramona bezatilgan maskanda o'quvchilarning ijodiy ishlari namunalardan chiroyli ko'rgazma tashkil etilgan.

Diqqatimni soya-salqin yerda qizg'in bellashayotgan o'quvchilar o'ziga tortdi. «Shaxmat-shashka» to'garagi rahbari Baxtiyor aka Xo'jayevning ta'kidlashicha, Chilonzor tumanidagi 200-umumta'lim maktabining 5-«G» sinf o'quvchisi Akromjon Yunusov va 101-umumta'lim maktabining 7-«E» sinf o'quvchisi Sherbek Bayzakov yil davomida erishgan muvaffaqiyatlari uchun bugun faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

- Men Abdulla Hoshimov, - deya o'zini tanishtirdi yosh chempion. - Yaqinda shaxmat bo'yicha o'tkazilgan shahar birinchiligida 3-o'rinni egalladim. Bu yil Chilonzor tumanidagi 217-umumta'lim maktabining 1-sinfiga o'qishga boraman. Shaxmat o'ynashni besh yoshimda akalarim - Fayzullo va Hojiakbardon o'rganganman. Katta bo'lsam, Rustam aka Qosimjonov singari jahon chempioni bo'lmoqchiman.

O'zlarini 203-umumta'lim maktabining 8-«V» sinf o'quvchisi Shahodat Mirahmatova, 229-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf



H. HAMIDULLAYEV olgan suratlar

o'quvchisi Robiya Ro'ziyeva, 203-umumta'lim maktabining 8-«D» sinf o'quvchisi Gulhayo Ismoilova deb tanishtirgan qizlar «Karving» to'garagi a'zolari ekan. Ularning oq turpdan yasalgan oqqushlar, tarvuzdan turli naqshlar o'yib, gilos bilan bezatilgan ijodiy ishlari chinakam san'at asarlari edi.

Bayram tadbirida o'quvchilar tomonidan baxtli bolalikni tarannum etuvchi she'r, qo'shiqlar yangradi. «Turon» sport jamoasining ko'rgazmali chiqishlari, «Milliy raqs» to'garagi a'zolari ijrosidagi sho'x raqslar yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Dilorom MUHAMMADJON qizi

LESSON 90

CHOOSE THE SUITABLE (Mosini tanlang)

Complete using the following:

I apologize I insist I promise I recommend I suggest

1. It's nice day. *I suggest we go out for a walk.*
2. I won't tell anybody what you said.
3. (in a restaurant) You must let me pay for the meal.
4.for what I did. It won't happen again.
5. The new restaurant in Navai Street is very good. it.

Umida G'OFUR qizi

Proverbs

WHO LOSES TIME THAT LOSES HAPPINESS (Vaqtning ketdi - baxting ketdi)

Losing gold will be found,
Losing time won't be found.

Pasting time is more expensive than wasting gold.

If you value your time,
You won't regret then.

Time doesn't wait for.

Every labour has it's own time,
Everyone who knows time has happiness.

Who gets up three days early,
wins one more day.

Who loses time that loses happiness.

Who gets up early-finishes work,
Who gets up late-shoves a lot.

Early share is better than late treasure.

Time is short period,
Who values it-he is dear.

Sarvinoz NAZAROVA,
the pupil of lyceum under Uzbek State World Languages University

Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

Short story

THE TAILOR AND AN ELEPHANT (Tikuvchi va fil)

There lived an elephant in a village. While going to river to take a bath regularly he passed a tailor's shop. Tailor always gave him something to eat. The two became friends.

As usual one day he put his trunk inside the shop.

The tailor was not in a good mood as he had a quarrel with a customer.

The tailor instead of giving him something to eat pricked a needle into his trunk. The elephant silently went away.

The elephant reached the river



and took his bath. After that he filled muddy water in his trunk. On his way back he stopped at the tailor's shop and threw all the muddy water on the clothes in the shop. All the clothes were destroyed. Tailor had to bear heavy loss.

So dear children, what do you think? Why the elephant splashed water to the tailor?

SIMPLE TEST

1. Look! The catnext to the window.
 - a) sits
 - b) is sitting
2. What? He is a teacher.
 - a) does your father do
 - b) is your father doing
3. English now?
 - a) Do you study
 - b) Are you studying
4. My sister has a birthday July.
 - a) in
 - b) on
 - c) at
5. The wedding is 22nd June.
 - a) in
 - b) on
 - c) at

Prepared by Dinora SHAKIROVA

Qutlov

BIZ SEVGAN SHOIRA

Inson hamisha hayotda o'z o'rnini topishga, orzu-maqсадlari sari yetishishga intiladi. Bu esa uni izlanish va intilishlar sari yetaklaydi. Men ham qishloqda tug'ilganman.

Esimda, maktabda o'qib yurgan paytlarimiz edi. Bir kuni kechki teleko'rsatuvlardan birida istarasi issiq, ko'zlarida nur jilvalanib turgan ayolning o'qiyotgan she'ri beixtiyor e'tiborimni tortdi. Keyin bilsam, bu ayol «Tong yulduzi» gazetasining Bosh muharriri Umida Abduazimova ekan. Shundan so'ng men ham she'riyatning dilbar ohanglariga shaydo bo'lganimni sezmay qoldim. Shu tariqa televizor orqali tez-tez ko'rinib turadigan shoir-u shoirlarning, ayniqsa, Umida opaning chiqishlarini intiqib kutadigan bo'ldim.

O'shanda 8-sinfda o'qirdim. She'riyatga bo'lgan qiziqish va mehirim tufayli qo'limga qalam oldim. Bir necha marta ularni yirtib tashladim, yana yozdim... Nima bo'ldi-yu bir safar opam bilan Toshkentga keldik. Men she'rlarimni matbuotga ko'rsatish istagida «Tong yulduzi» gazetasini izlab topdim va opaning oldiga kirdim. U kishi xuddi she'rlari-dek muloyim so'zli va kamtar ayol ekan. Meni iliq kutib olgan holda ikkita she'rimni olib qoldilar.

Oradan vaqt o'tib, «Tong» nomli she'rim gazetada bosilib chiqdi. Uni birinchi bo'lib o'qigan maktabimiz direktori meni xonasiga chaqirib tabrikladi. O'shanda men ilk bor she'r yozish va shoirlikning betakror lazratini his etdim...

Ha, Respublikada xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Xalq ta'limi a'lochisi, «Shuhrat» medali sovrindori Umida Abduazimova menga o'zi bilmagan holda ustozlik qilgan edi.



– She'riyatning sehri va mehridan bahra olish menga baxt olib kelgan. Otam jajji qizaloqligimdan menga she'rlar yod oldirib aytirishni, raqsalarimni tomosha qilishni sevdi. Oqshom dasturxonga fo-tiha tortilgach, menga: «Qani, qizim, endi she'rlaringdan o'qib bersang, seni mashhur shoir Po'lat Mo'minning oldiga olib boraman», deb ruh-lantiradilar. Shu tariqa otamning turtkisi bilan she'riyatga havasim uyg'ongan. 9-sinfaligimda «Tong yulduzi» gazetasi ijodiy to'garagi-ga a'zo bo'ldim. Shoir bo'lish ha-qidagi orzularim haqiqatga aylan-



– 4-sinfaligimda «Tong yulduzi» gazetasida she'rim bosilib chiqqan, – deydi Umida opa.

di. She'rlarimga ustoz shoir Po'lat Mo'min «Oq yo'l» yozdilar, deydi Umida Abduazimova.

**Muhabbat oilaning
Kenja qizi – shirini.
Nega bunday ekanin
Aytib beray sirini.**

**Akasi-yu opasi –
Ketishgach o'qishiga.
Yordamlashar yo'q demay
Buvijonin ishiga.**

**Chelakchada suv sepib,
Hovlini supuradi.
Tuproqning nondek isi
Dimoqqa ufuradi...**

Ha, she'riyat bo'stonining ranglari turfa, gullari iforli... Dilbar she'riyati, publitsistik maqolalari bilan muxlis-larga tanilgan, men kabi havaskor qalamkashlarni ijodga chorlagan Umida Abduazimova bugun biz kabi she'riyat muxlislarining yaqin do'sti va maslakhodshidir.

Bugungi kunda uning dilimizdan joy olgan «Shirintoy», «Seni ko'rgim kela-veradi», «Oymoma bog'», «O'n sakkizdan o'tgim yo'q», «Ayt, nima qilay?», «Yozil-magan kitob», «Oydin orzular», «Sadoqat», «Umrim ziynati» kabi ko'plab kitoblari o'z muxlislarini topgan. Ular o'sib ke-layotgan yosh avlodning mehr-oqibat, muhabbat, sadoqat, ishonch, ona Vatanga samimiy tuyg'ularini shakllantirish va mustahkamlashda, ma'naviyat dunyosini yanada boyitishda xizmat qilayotgani, shubhasiz.

TAHRIRIYATDAN: Biz sevgan shoir Uida opa Abduazimova yaqinda muborak yoshini qarshi oldilar. Biz shogirdlari nomidan bolaqalb shoirani tavallud ay-yomi bilan muborakkob etamiz.

Maryam AHMEDOVA

NURAFSHON CHO'QQILAR SARI

Yoz bor noz-ne'matlarini borliqqa sochib keldi. Dasturxonlari-mizga fayz-u baraka kirdi. Sinfxonalar bilan xayrlashgan o'quvchilarimiz bugun hayot quchog'iga o'tlanishdi. Ular endi ona tabiat bag'rida Vatan darsini o'taydi.

Ta'til ko'ngillarga huzur baxsh etuvchi zavqli pallalardan biri sanaladi. Ayni damda ijodga mehri baland o'g'il-qizlarimiz qog'oz-qalamini qo'lga olib, tabiat qo'ynida o'y surib yurgan bo'lsa, ajabmas. Ular tabiatga mahliyo bo'lib, uning tengsiz go'zalligini qog'ozga tushirish ilinjida. Dildan his etib bitilgan satrlar qalblarga bahor yang-lig' iliqlik baxsh etadi. Hayotning adabiyot bilan qorishiq bo'lgan sir-sinoatlarini o'rgangan o'quvchi-gina eng a'lochidir.


Aziz o'quvchi! Jannatmonand ona yurtimiz kundan kun gullab-yashnayotganiga guvohsiz. Musaf-o osmonimizda keng qanot yozib

uchgan oppoq qushlarga qo'shib, parvoz qilishga shaylaning. Bar-cha narsa sizning a'lo o'qishingiz uchun muhayyo qilingan, ajib davr-u zamonda yashayapsiz, sizdan ta-lab etiladigani esa ko'proq o'qib, ilm olish. Biz sizga ulug' adibimiz Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning bilim haqidagi purma'no fikrlari-ni yana bir bor eslatgimiz keldi. «Fanda keng, tekis yo'l yo'q, faqat chag'ir toshli yo'llardan tirmashib chiqqan kishigina uning nurafshon cho'qqilariga yeta oladi».

Nurafshon cho'qqilarni zabt etish baxti hech qachon qalbingizni tark etmasin.

AXTAMQULI

SAMARQAND



Ming yillik tarixing bordir,
Ro'yi zamin uzra Samarqand.
Senga doim ezgulik yordir,
Jonim mudom aylayin payvand.

Binolaring so'zlar moziydan,
Ulug'beklar izi tabarruk.
Avlodlaring ma'lum ko'zidan,
Sen muqaddas, buyuksan, buyuk!

**Mahfuza BEGIM,
Toshkent davlat pedagogika
universiteti qoshidagi akademik
litsey o'quvchisi**

SANGARDAKKA KELGAN BORMI?

Surxonimni ko'rganlar bormi,
Sangardakka kelganlar bormi?
Sharsharadan to'yib suv ichgan,
Yurt mehridan qonganlar bormi?
Sangardakka kelganlar bormi?

Sangardakdan so'ylasam agar,
Qushlar kuylar turib tong sahar.
Quloq soling, aziz odamlar,
U shundayin jannatmakondir!
Bizlar uchun aziz makondir!



**Munisabonu MUZROBOVA,
Surxondaryo viloyati, Sari-
osiy tumanidagi 16-umum-
ta'lim maktabining 9-«B» sinf
o'quvchisi**

SHO'RVA



Bir qoshiq sho'rva qil, deb
Buvim aytdi onamga.
Birozdan so'ng shirin hid,
Kirib keldi xonamga.

Oshxonaga yugurib,
Qozonga ko'z tashladim.
Onam tushunmabdi-da,
Deya boshim qashladim.

Deyman: «Buvim aytganin
Qilmabsiz-a, oyijon...
Bir qoshiqning o'miga
Pishiribsiz bir qozon».

**Nasiba HAYITBOYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Amudaryo tumanidagi 13-umum-
ta'lim maktabining 7-sinf
o'quvchisi**

YOSHLIK VA SHIJOAT BAYRAMI



Ya qin -
da vodiy gavhari
- Farg'ona shahrida oliy
o'quv yurtlarida tahsil olayot-
gan aka-opalaringiz ishtirokida
«Universiada - 2016» sport o'yin-
lari bo'lib o'tdi. Uch kun davom
etgan musobaqalarda 1068 nafar
talaba-yoshlar sportning 15
turi bo'yicha o'zaro bahs
olib borishdi.

Mamlakatimizda tashkil etilgan uch bosqichli sport musobaqalari yosh avlod o'rtasida sportni ommalashtirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, iqtidorli sportchilarni bosqichma-bosqich yirik nufuzli musobaqalarga tayyorlab borishda yuksak samaralar berayotir. Quvonarlisi, «Umid nihollari», «Barkamol avlod» hamda «Universiada» sport musobaqalari tufayli yurtimizning barcha hududlarida zamonaviy va muhtasham sport inshootlari qad rostlab, yoshlar ixtiyoriga topshirilmoqda. Bugun chekka-chekka qishloqlardan ham Osiyo va jahon chempionlari, Olimpiada o'yinlari sovrindorlari yetishib chiqayotgani barchamizga g'urur va iftixor baxsh etadi.

Bu galgi «Universiada» sport o'yinlari ham tom ma'noda yoshlik va shijoat bayramiga aylanadi.

Musobaqaning so'nggi kuni Farg'ona shahridagi «Istiqlol» o'yingohida «Universiada - 2016» sport o'yinlarining yopilish marosimi bo'lib o'tdi. Maydonga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri terma jamoalari kirib kelishdi. Bellashuvlarda eng ko'p medal jamg'arib, 1-o'rinni egallagan Toshkent shahri jamoasiga oliy mukofot - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Universiada - 2016» sport o'yinlari ishtirokchilariga yo'llagan tabrigining asl nusxasi va Prezident sovg'asi - «Damas» avtomobili topshirildi. Umumjamoa hisobida 2- va 3-o'rinlarni egallagan Farg'ona va Samarqand viloyati jamoalari esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovg'asi - «Damas» avtomobili bilan taqdirlanishdi. Murosasiz bellashuvlarda alohida matonat ko'rsatgan sportchilar maxsus sovrinlarga sazovor bo'lishdi.

Tadbir yakunida «Universiada - 2016» sport o'yinlari bayrog'i tushirildi. Uni farg'onalik yoshlar navbatdagi «Universiada»ga mezbonlik qiladigan Samarqand viloyati sportchilariga topshirdi. Barcha mehmonlar Farg'onadan bir olam taassurot bilan ortga qaytishdi.

Sa'dullo **TURSINOV**

NAFOSAT MALIKALARI

**Yosh avlodni jismonan sog'lom
va barkamol etib tarbiyalash,
ularning sport bilan muntazam
shug'ullanishi uchun qulay
shart-sharoitlar yaratish,
bugungi kunning dolzarb
vazifalaridan biriga aylanib
bormoqda.**

Jizzax viloyatining Arnasoy tumanidagi Bolalar va o'smirlar sport maktabi bilan «Sog'lom ona va bola yili» munosabati bilan «Sog'lom turmush - farovon hayot garovi» shiori ostida sportning badiiy gimnastika turi bo'yicha musobaqa tashkil etildi. Musobaqada sportning nafis turi bilan shug'ullanayotgan 20 nafarga yaqin qizlar o'zaro bellashdi.

Tadbirda tashrif buyurgan ota-onalar badiiy gimnastikani joylarda keng ommalashtirish o'smir qizlarning har tomonlana chiniqishi, bo'lg'usi onalar sifatida ularni sog'lom va barkamol shaxs qilib kamol toptirishga ko'maklashishda muhim ahamiyat kasb etishi xususida fikr bildirdilar.

Musobaqa g'oliblari O'ZMTDP Markaziy Kengashi va hamkor tashkilotlarning faxriy yoriqlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Ulug'bek **SAIDOV**



NAVBATDAGI BELLASHUV - TAILANDDA

**Maydonchadagi bolalar o'rtadagi bolakaydan karate
hamda kikkoksing usullaridan ko'rsatishni so'rashar-
di. U chaqqonlik bilan mashqlarni namoyish etgach,
mashg'ulotga shoshayotganini aytib, xayrlashdi. Bola-
lar uning ortidan havas bilan qarab qolishdi.**

Akasi Abbosxondagi chaqqonlik, epcillikni ko'rgan Hasanxon va Husanxon ham o'sha kuni Orifxon akaga, biz ham sport bilan shug'ullanamiz, deb xarxasha qilishdi. Bu vaqtda oilaning to'ng'ichi Xurshidaxon badiiy gimnastika bilan shug'ullanar edi. Egizak o'g'illari sportga qatnashishiga hali erta deb o'ylagan ota adashganini sezdi va ularni sport to'garagiga olib bordi. Bolalar 4 yoshidan karate bilan shug'ullani-
nishdi.

8 yoshidan esa kikkoksing federatsiyasiga qarashli Yunusobod tumanidagi «BARS» sport klubiga qatnab, murabbiylari Abdurashid Akalbeyevdan kikkoksing sirlarini o'rganishdi.

- Shu yili Marg'ilonida 12-13 yoshlilar o'rtasida bo'lib o'tgan musobaqada oltin kamarni himoya qildik. Buxoroda bo'lib o'tgan penchak-silat sport turi bo'yicha men 1-o'rinni, Husanxon esa 2-o'rinni egalladi.

Ushu bo'yicha O'zbekiston chempionatida 1-o'rinni egalladi. Ayni paytda iyun oyida Tailandda bo'ladigan Xalqaro musobaqaga tayyorgarlik ko'ryapmiz.

Biz sportga yoshlikdan ixlos qo'yib, uning sir-asrorlarini chuqur o'rganayotgan, mashqlarda toblanayotgan bu aka-ukalarga Tailanddagi musobaqada zafar yor bo'lishi tiladik.

N. NAZAROVA



Hasanxon va Husanxon Odilxonovlar bu yil poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabining 6-sinfini muvaffaqiyatli tamomlashdi. Bu vaqt oralig'ida 4 marta O'zbekiston chempioni, 6 marta shahar chempionligini qo'lga kiritishdi.

G'OLIB JAHON CHEMPIONATIGA BORADI

Pamukliklar orasida kurash bo'yicha nom chiqargan polvonlar juda ko'p. Boboxon ham avval kichik davralarda kurash tushib yurdi. 7-sinfga o'tganida otasi uni sport maktab-internatiga o'qishga berdi. Yosh sportchi u yerdan Rahmatilla Temirov, Nasullo Aslanov singari murabbiylardan kurash sirlarini o'rgandi. Qator musobaqalarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan kurashchi tarbiyalanuvchilar orasida tez ko'zga ko'rindi.

Boboxon 2015-yilning noyabrida Qashida bo'lib o'tgan kurash bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi O'zbekiston kubogida 3-o'rinni egalladi. Joriy yilning aprel oyida dzyudo bo'yicha Xorazmdagi ochiq chempionatda kuchli beshtalik orasidan joy oldi. 25-29-may kunlari Namangan shahrida o'tkazilgan 1995-1997-yilda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi O'zbekiston chempionatida 1-o'rinni egallab, Hindistonda bo'lib o'tadigan jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Kurashchi ko'lajak safarga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda.

Shukrulla **G'ULOM**

**Boboxon
Jabborov Buxoro pedagogika kolleji
o'quvchisi. Qashqadaryo
viloyatining Mirishkor
tumanidagi Pamuk qish-
log'ida tug'ilgan bolakay
bolaligidan sportga
mehr qo'ydi.**

Hayotdan noliyveradigan bir qizga otasi saboq berish uchun oshxona-ga chorladi. Uch xil idishda qayna-gan suvga kar-toshka, tuxum va qahva dona-larini soldi. Yi-girma daqiqadan so'ng barini bosh-qa idishlarga bo'sha-tib, qiziga yuzlandi:

— Qanday o'zgarish yuz berdi?

Qiz kartosh-ka yumshaganini, tuxum qattiqlashganini, qahva esa xushta'm sharbatga aylanganini aytdi.

— Lekin bu bilan nima demoq-chiligingizni tushunmadim, — dedi qizi.

— Hayot hamma uchun bir xil, ya'ni kurashlardan iborat. Mashaq-

Lech MAKDONALD

qatlar iskanjasida kar-toshkaday ezilib qolasanmi, yo qalbing tuxum kabi qattiqla-shadimi, yo bo'lmamasam, qahva donacha-laridek g'amga bo'yin bermay o'zingni komil-lashtirib, hayo-tingga ayrica ta'm hadya etish qo'lingdan keladi-mi?..

Qiz o'zining noshukur-ligidan uyaliq qoldi. Shunda ota uning boshini silab:

— Hayot hikmat izlab yashash uchun berilgan. Unga kulib boq-sang, u ham senga kulib boqadi, — dedi.

Rus tilidan

Jamshid MATYOQUBOV
tarjimasi



GO'ZAL AN'ANA

Taniqli adib Erkin Malikning bolaligi Toshkent viloyati, Yangi-yo'l tumanidagi Nov, Ubay Musayev qishloqlarida o'tib, urush va qiyinchilik davrlariga to'g'ri keldi.

Har gal yozuvchining yangi kitobi chiqsa, u eng avvalo, qadrdon bolaligi, o'smirligi kech-gan Yangiyo'lga oshiqadi. Bolalarga kitoblardan sovg'a qiladi.


Kuni kecha Erkin boboning «Bolaligim ertaklari» nomli kitobi nashrdan chiqdi. Adib yana Yangi-yo'l'dagi 3-umumta'lim maktabiga tashrif buyurib, yosh hamqishloqlari bilan uchrashdi. Davra suh-batida zukko o'quvchilarga kitoblar ulashdi.

Muzaffar AHMEDOV



TOPISHMOQLAR

Suv ichida suzadi,
Qanoti ham bo'ladi.
Ammo, lekin uchmaydi,
Suv ichidan chiqmaydi.
Idishda bo'lmas chang,
O'zi yeydi chuvalchang.
Bu nima, topgin, Sodiq?..
— Topdim, topdim, bu ...



Mazalidir ayiqqa,
O'tirvolib qayiqqa.
Yeydi uni olvolib —
Idishiga solvolib.
Qani topgin, Gulasal?..
— Topdim, topdim, bu ...



Shahzoda IBROHIMOVA,
poytaxtimizning Mirobod
tumanidagi 213-umumta'lim mak-
tabining 5-«A» sinf o'quvchisi

ZEBRA TORTI

Kerakli masalliq: 5 dona tuxum, 100 gramm sariyog', 1,5 piyola shakar, 200 gramm smetana, 1 oshqoshiq qavart-ma, 2 oshqoshiq kakao, 2-3 stakan un.

Tayyorlanishi: dastavval sari-yog' 0,5 piyola shakar bilan aralashtiriladi. Alohida idishda 5 dona tuxum 1 piyola shakar bilan bir xil massaga kelgun-ga qadar ko'pirtiriladi va sariyog'li qorishmani solib aralashtiriladi. 200 gramm smetanaga qavartma solinib, tuxumli massaga qo'shib, un solib suyuq xamir qoriladi.



Xamir 2 bo'lakka bo'linadi va 1 bo'lagiga 2 oshqoshiq kakao solib aralashtiriladi. Yog'langan tort qolipiga oq va qora xamir navbatma-navbat 1 qoshiqdan solinadi. Oldindan qizdirilgan gaz pechida 170–180° daraja past olovda 45–60 daqiqa davomida pishiriladi. Pishgan tortimiz ustidan eritilgan shokolad quyuladi.


Yoqimli ishtahal

NARGIZA tayyorladi

BO'SH O'TIRMAI. BOSH QOTIR!

MAQOLLAR BOSHQOTIRMASI

Ushbu maqollarda qoldirib ketilgan so'zlarni topib, o'rnini to'ldiring.



1. Kamtarga ...
Manmanga zavol.

5 chamanni sevar,
Odam Vatanni.

2. Osmon uzoq,
Yer ...

6. Avval taom, ba'daz...

3. Ayрилganni ... yer,
Bo'linganni bo'ri yer.

7. Do'st achitib gapirar, ...
kuldrib.

4. Mehnat, mehnatning ... izidan.
tagi...

8. Yigit so'zidan qaytmas

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

Ushbu sonda Yoqubbek HALIMBEKOV chizgan rasmlardan foydalanildi

SIRLI KATAKCHALAR

Javoblarni eniga va bo'yiga bir xil yoziladi.

1.	2.	3.
2.		
3.		

1. Oz.
2. Hassa.
3. Shaxmat holati.

1.	2.	3.	4.
2.			
3.			
4.			

1. Buva.
2. Qo'yalar to'dasi.
3. Narx.
4. Rohat, huzur.

Tuzuvchi: Firdavs
QO'SHNAZAROV,
Jizzax viloyati,
Zomin tumanidagi
36-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

6-iyun 2016

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

Tahrir hay'ati:
Omonulla YUNUSOV,
Dilshod KENJAYEV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Nodira
NAZAROVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-
dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-
xonasida chop etildi.
Manzilmiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi — 47200
Buyurtma — S 6144

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08